



## PENSIYA TIZIMI FAOLIYATINING XORIJIY Tajribasi

**Allayarova Mastura**

Guliston davlat universiteti

ORCID: 0009-0000-4164-1013

[allayarovamastura@gmail.com](mailto:allayarovamastura@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pensiya ta'minoti va majburiy pensiya sug'urtasining zamonaviy davlatlarning ijtimoiy himoya tizimidagi o'rni hamda ularning barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda Germaniya, Italiya va AQSh pensiya tizimlari misolida majburiy, korporativ va xususiy pensiya ta'minoti darajalari, ularning moliyalashtirish manbalari, ishtirokchilar doirasi hamda funksional xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, davlatning pensiya tizimidagi tartibga soluvchi roli, avlodlar birdamligi tamoyili, jamg'arib boriladigan pensiya mexanizmlarining ahamiyati va aholi qarish jarayonining pensiya tizimiga ta'siri ko'rsatib berildi. Maqolada pensiya yoshi, minimal sug'urta staji, badallar miqdori kabi mezonlar bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi solishtirildi. O'zbekiston pensiya tizimining hozirgi holati, demografik o'zgarishlar sharoitida uning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar, majburiy pensiya sug'urtasini takomillashtirish zarurati va islohotlarning ustuvor yo'nalishlari asoslab berildi. Xulosa qismida xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirgan holda pensiyaning jamg'ariladigan qismini rivojlantirish, aktuariy baholashni kuchaytirish, majburiy va ixtiyoriy pensiya mexanizmlarining uyg'unlashuvi pensiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** pensiya ta'minoti, pensiya tizimi, ijtimoiy himoya, fond, sug'urta badallari, sug'urtalangan shaxslar.

## ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ

**Аллаярова Мастура**

Гулистанский государственный университет

**Аннотация.** В данной статье раскрыты роль пенсионного обеспечения и обязательного пенсионного страхования в системе социальной защиты населения современных государств, а также их значение в обеспечении устойчивого развития. В исследовании на примере пенсионных систем Германии, Италии и США проведён сравнительный анализ уровней обязательного, корпоративного и частного пенсионного обеспечения, их источников финансирования, круга участников и функциональных особенностей. Кроме того, показана регулирующая роль государства в пенсионной системе, принцип межпоколенческой солидарности, значение накопительных пенсионных механизмов и влияние процессов старения населения на пенсионную систему. В статье также сопоставлен опыт отдельных зарубежных стран по таким критериям, как пенсионный возраст, минимальный страховой стаж и размер страховых взносов. Обоснованы современное состояние пенсионной системы Узбекистана, факторы, влияющие на её финансовую устойчивость в условиях демографических изменений, необходимость совершенствования обязательного пенсионного страхования и приоритетные направления реформ. В заключение отмечается, что развитие накопительной части пенсии, усиление актуарной оценки и гармонизация механизмов обязательного и добровольного пенсионного обеспечения при адаптации международного опыта к национальным условиям способствует повышению эффективности пенсионной системы.

**Ключевые слова:** пенсионное обеспечение, пенсионная система, социальная защита, фонд, страховые взносы, застрахованные лица.

## FOREIGN EXPERIENCE IN THE FUNCTIONING OF THE PENSION SYSTEM

**Allayarova Mastura**  
Gulistan State University

**Abstract.** *This article reveals the role of pension provision and compulsory pension insurance in the social protection system of the population in modern states, as well as their significance in ensuring sustainable development. The study conducts a comparative analysis of the levels of compulsory, corporate, and private pension provision, their sources of financing, the range of participants, and functional characteristics using the pension systems of Germany, Italy, and the United States as examples. In addition, the regulatory role of the state in the pension system, the principle of intergenerational solidarity, the importance of funded pension mechanisms, and the impact of population aging on the pension system are highlighted. The article also compares the experience of certain foreign countries according to such criteria as retirement age, minimum insurance record, and the amount of insurance contributions. The current state of the pension system of Uzbekistan is substantiated, along with the factors affecting its financial stability under demographic changes, the need to improve compulsory pension insurance, and the priority directions of reforms. In conclusion, it is noted that the development of the funded component of pensions, the strengthening of actuarial assessment, and the harmonization of compulsory and voluntary pension mechanisms, while adapting international experience to national conditions, contribute to improving the efficiency of the pension system.*

**Keywords:** *pensions, pension system, social protection, fund, insurance premiums, insured persons.*

**Kirish.**

Zamonaviy sharoitda pensiya tizimining samarali faoliyatini tashkil etish ijtimoiy himoya tizimining eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari, demografik jarayonlar, mehnat bozoridagi o'zgarishlar pensiya ta'minoti mexanizmlarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi. Ayniqsa, aholining qarish jarayoni, mehnatga layoqatli aholining qisqarishi va pensiya tizimi yuklamasining oshishi mavjud pensiya tizimlari barqarorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu boisdan xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish va ularni milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy muammosi pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligi va samaradorligini ta'minlash, majburiy va ixtiyoriy pensiya sug'urtasi elementlari o'rtasidagi optimal nisbatni aniqlash bilan bog'liq. Tadqiqotning maqsadi xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlari tajribasini tahlil qilish hamda ularning ustun va zaif jihatlari asosida O'zbekiston pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun pensiya tizimining tuzilmasini o'rganish, majburiy va jamg'arib boriladigan pensiya mexanizmlarining samaradorligini baholash, demografik omillarning pensiya ta'minotiga ta'sirini aniqlash kabi vazifalar belgilab olindi.

Tadqiqot obyekti sifatida pensiya tizimi va uning amal qilish mexanizmlari, pensiya sug'urtasi shakllari hamda ular bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olinadi. Maqolaning keyingi bo'limlarida avvalo pensiya tizimining nazariy-metodologik asoslari yoritiladi, so'ng Germaniya, Italiya va AQSh kabi mamlakatlar pensiya tizimlarining tajribasi tahlil qilinadi. Yakuniy qismda esa olingan natijalar asosida O'zbekiston pensiya tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

### Adabiyotlar sharhi.

Pensiya ta'minoti va pensiya sug'urtasi tizimlari bo'yicha ilmiy adabiyotlarda jahondagi turli modellarning tuzilishi, samaradorligi va ularning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga mosligi keng tahlil qilingan. Bu bilan birga, demografik o'zgarishlar hamda mehnat bozoridagi tendensiyalar pensiya tizimlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.

Birinchidan, pensiya tizimining jamiyatda ijtimoiy himoya vazifalarini amalga oshirishdagi roli haqida ilmiy tadqiqotlar diqqat markazida turadi. Holzmann va Hinz (2005) pensiya tizimlarini uch bosqichli model (davlat, xususiy va jamg'ariladigan) orqali tushuntirib, ushbu modelning turli mamlakatlarda pensiya ta'minoti barqarorligini ta'minlashga qanchalik xizmat qilishini yoritgan. Ularning ta'kidlashicha, jamg'ariladigan element pensiya tizimining demografik o'zgarishlarga mustahkamligini oshiradi (Holzmann va Hinz, 2005).

Ikkinchidan, Demografik omillar pensiya tizimining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bloom va Canning (2008) demografik o'sish va qarish jarayonlarining pensiya tizimlari ustidagi iqtisodiy yukini modellashtirgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, aholining qarishi pensiya chiqimlarini oshiradi va pensiya tizimining moliyaviy holatini davlat xarajatlarining ko'payishi orqali sezilarli darajada zaiflashtiradi (Bloom & Canning, 2008).

Uchinchidan, mavjud davlatlarning pensiya tizimlari tajribasini solishtiruvchi tadqiqotlar ham mavjud. Barr va Diamond (2008) Germaniya pensiya tizimi asosida avlodlar birdamligi printsiplari tahlil qilgan. Ular birdamlik tamoyili pensiya ta'minoti ijtimoiy adolatini ta'minlab, mehnat qilayotgan fuqarolarning hozirgi pensionerlarga to'lanadigan badallar orqali ijtimoiy taqsimotni amalga oshirishini ko'rsatgan (Barr & Diamond, 2008).

Shuningdek, OECD (2019) hisobotlarida rivojlangan davlatlardagi pensiya tizimlari bo'yicha keng qamrovli statistik tahlil berilgan. Hisobotda pensiya yoshining oshishi, ixtiyoriy sug'urta mexanizmlari va jamg'ariladigan qismlarning roliga alohida e'tibor qaratilgan. OECD ekspertlarining fikricha, pensiya tizimlarining muvaffaqiyati asosan demografik sharoitlarga moslashuvchanlik va ixtiyoriy jamg'arma mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq (OECD, 2019).

Shuningdek, Lee va Mason (2011) olimlarining tadqiqotlarida demografik o'zgarishlar pensiya tizimlarining iqtisodiy jozibadorligiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Ular pensiya tizimi samaradorligini baholashda ijtimoiy xarajatlar, ishchi kuchining o'sish darajasi va ta'minot mexanizmlarini kompleks ko'rsatkichlar orqali o'lchash metodologiyasini taklif qilgan (Lee & Mason, 2011).

Umuman olganda, adabiyotlar pensiya tizimlari tahlilida quyidagi uch asosiy yo'nalishni ajratadi: (1) demografik o'zgarishlarga pensiya tizimining moslashuvi, (2) ijtimoiy adolat va taqsimot printsiplari, (3) jamg'ariladigan mexanizmlarning tizim samaradorligidagi o'rni. Shu bilan birga, har bir davlatning o'ziga xos moliyaviy-iqtisodiy sharoitlari pensiya modeli samaradorligini belgilaydi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi pensiya tizimlarining shakllanishi va faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiy nazariyalar hamda institutsional yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqotda tizimli yondashuv asosida pensiya ta'minoti, ijtimoiy sug'urta, demografik jarayonlar va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar kompleks tarzda o'rganildi. Nazariy, qiyosiy, statistik tahlil qilindi. Pensiya tizimlari bo'yicha ilgari chop etilgan ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, monografiyalar va ilmiy maqolalar o'rganildi. Ushbu usul pensiya tizimlarining nazariy asoslari, ularning turlari va rivojlanish tamoyillarini aniqlash imkonini berdi. Germaniya, Italiya, AQSh va boshqa davlatlar pensiya tizimlari O'zbekiston pensiya tizimi bilan qiyoslab tahlil qilindi. Qiyoslash jarayonida pensiya yoshining belgilanishi, sug'urta badallari, jamg'arib boriladigan pensiya ulushi va ijtimoiy kafolatlar darajasi kabi ko'rsatkichlar solishtirildi. Demografik ko'rsatkichlar, aholi qarish darajasi, pensiya oluvchilar soni, pensiya jamg'armasi tushum va xarajatlari bo'yicha mavjud statistik

ma'lumotlar tahlil qilindi. Ushbu tahlil pensiya tizimining moliyaviy barqarorligi va yuklama darajasini baholashga xizmat qildi. Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi statistika organlari ma'lumotlari, Moliya vazirligi va Pensiya jamg'armasi axborotlari, shuningdek, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti va OECD hisobotlari tashkil etadi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Pensiya ta'minoti va sug'urtalash har bir zamonaviy davlatda aholining ijtimoiy himoya tizimining ajralmas qismi bo'lib, ular jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy va eng muhim kafolatlardan biridir. Ushbu elementlar, o'z navbatida, pensiya tizimining tarkibiy qismini tashkil etib, uning maqsadi fuqarolarni pensiya yoshiga yetganida yoki ularning hayotida boshqa holatlar (nogironlik, boquvchisini yo'qotish va hokazo) yuzaga kelganda moddiy jihatdan ta'minlashdan iboratdir.

Turli pensiya modellarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ularning barchasi u yoki bu darajada majburiy pensiya sug'urtasi tamoyillariga asoslanadi. Ushbu holat majburiy pensiya sug'urtasi tizimi bozor iqtisodiyoti talablariga eng mos kelishi va jamiyatning turli qatlamlari manfaatlariga javob berishi bilan izohlanadi.

Ko'pgina mamlakatlarda majburiy pensiya sug'urtasiga asoslangan milliy pensiya tizimlari quyidagi asosiy belgilar bilan tavsiflanadi:

- pensiya sug'urtasi majburiy xarakterga ega bo'lib, sug'urtalovchi (ish beruvchi) va sug'urtalangan shaxsning (yollanma ishchi) ixtiyoriga bog'liq bo'lmaydi. Majburiy pensiya sug'urtasi tizimida davlat asosiy subyekt va ishtirokchilarni belgilaydi hamda ularning faoliyatini tartibga soladi;

- majburiy pensiya sug'urtasi tizimi moliyaviy jihatdan sug'urta badallari va (yoki) sug'urtalangan shaxslarning to'lovlari hisobidan shakllantiriladi hamda zarur hollarda davlatning qo'shimcha ishtirokini ham nazarda tutadi;

- sug'urta badallari maxsus fondlar (yoki jamg'armalar)da to'planib, sug'urta hodisasi yuz berganida pensiyalarni tayinlash va to'lashni amalga oshiradi;

- sug'urta mukofotlari va to'lovlari miqdori sug'urtalangan shaxsning ish haqi yoki daromadiga bog'liq bo'ladi.

Pensiya sug'urtasining eng samarali tizimi Germaniyaning avlodlar birdamligi printsipligiga asoslangan pensiya tizimi hisoblanadi, unga ko'ra mehnat qilayotgan aholi pensionerlarni ta'minlash maqsadida Pensiya jamg'armasiga badallar to'laydi (Siraeva, 2015).

Germaniyadagi pensiya tizimi uchta asosiy darajadan iborat: majburiy pensiya sug'urtasi, korxona pensiya sug'urtasi va xususiy pensiya sug'urtasi. Majburiy pensiya sug'urtasi quyidagi toifa fuqarolarni qamrab oladi: ishchilar, xizmatchilar, davlat amaldorlari, uy xo'jaligida band bo'lganlar hamda fermerlar. Pensiya ta'minotining ushbu darajasi nafaqat mehnatga layoqatli va band bo'lgan shaxslarga, balki ma'lum sabablarga ko'ra jamiyatda to'liq mehnat munosabatlariga ega bo'lmagan (nogironlar, bevalar, talabalar, ishsizlar va boshqalar) guruhlariga ham taalluqlidir. Germaniyada amal qiluvchi pensiya ta'minoti tizimidagi birdamlik asosida qayta taqsimlash tamoyili asosida ular sug'urta badallarini to'lay olmasalarda pensiya sug'urtasi tizimining ishtirokchilari hisoblanadilar.

Ishchilar va xodimlarning majburiy pensiya sug'urtasidan farqli o'laroq, Germaniyada erkin kasb egalari (shifokorlar, veterinarlari, advokatlar, notariuslar, arxitektorlar va boshqalar) uchun pensiya sug'urtasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Mustaqil ravishda ishlaydigan erkin kasb egalari yuqori sug'urta mukofotlarini to'laydilar. Shunga ko'ra, ularning pensiya ta'minoti miqdori yuqori.

Germaniyada pensiya tizimining ikkinchi darajasi korxonada pensiya sug'urtasi hisoblanadi. Keksalik davridagi ushbu himoya shakli korporativ xususiyatga ega bo'lib, majburiy hisoblanmaydi. Korxonaning o'zi pensiya ta'minotini, ko'pincha "korxona nafaqasi" deb ataluvchi to'lovlarni, joriy etish yoki etmaslik hamda ularning hajmini mustaqil ravishda belgilaydi.

Qarilikda ijtimoiy himoyaning uchinchi darajasi xususiy pensiya sug'urtasi hisoblanadi. Ushbu tizim fuqarolarga majburiy pensiya sug'urtasi tizimida nazarda tutilgan ta'minotdan tashqari qo'shimcha ijtimoiy ta'minot olish imkonini beradi, shuningdek, majburiy pensiya sug'urtasiga jalb etilmagan shaxslar uchun muqobil sug'urta shakli sifatida xizmat qiladi. Majburiy pensiya sug'urtasidan farqli, xususiy sug'urta kompaniyalariga to'lanadigan badallar yuqori bo'ladi, biroq bunday pensiyalarning miqdori ham shunga mutanosib ravishda ko'p bo'ladi. Germaniyada amal qiluvchi uch pog'onali pensiya sug'urtasi tizimi asosan pensiya ta'minotining taqsimot tamoyiliga asoslangan bo'lib, unda ma'lum darajada jamg'aruv elementlari ham mavjud.

Shunday qilib, pensiya sug'urtasiga oid majburiyatlar, kam daromadli shaxslarni hisobga olmaganda, daromad miqdoriga emas, balki shaxsning qaysi ijtimoiy guruhga mansubligiga bog'liq holda belgilanadi.

Har oy ish beruvchi xodim uchun ijtimoiy sug'urtadagi ulushini to'laydi. Agar fuqaro harbiy yoki muqobil xizmatni o'tayotgan bo'lsa, pensiya tizimiga badallarni davlat tomonidan to'lanadi. Germaniyada umr davomiyligining oshishi va tug'ilish darajasining pasayib borishi munosabati bilan davlat Pensiya jamg'armasiga majburiy badallar miqdori muntazam ravishda oshirib borilmoqda va hozirgi kunda u ishchining ish haqining 20 foizini tashkil etadi. Germaniyada pensiya yoshi ayollar va erkaklar uchun 67 yoshni tashkil qiladi. Germaniya hukumati pensiya yoshini 70 ga ko'tarish masalasini jiddiy ko'rib chiqmoqda.

Yillar davomida amalga oshirilgan ko'plab islohotlar natijasida Italiyaning pensiya tizimi uch bosqichli tizimda amalga oshirilgan. Italiya pensiya tizimining birinchi darajasi taqsimot tamoyiliga asoslangan majburiy davlat sug'urtasidan iborat. Ishchi o'z mehnat faoliyati davomida nafaqaga chiqish maqsadida o'z daromadining ma'lum bir qismini ajratib boradi.

Har bir ishchi, kasb yoki faoliyat turidan qat'i nazar, o'z ish haqi hisobidan majburiy tartibda badallar to'lashi shart.

Mehnat faoliyati davomida to'langan badallar har oylik pensiya miqdorini belgilaydi, uning hajmi ishchi tomonidan amalga oshirilgan to'lovlarning soni va hajmiga bog'liq bo'ladi.

Pensiyalarning bir necha turlari mavjud:

- qarilik bo'yicha pensiya pensiya yoshiga yetgan va belgilangan minimal miqdordagi badallarni to'lagan xodimlarga to'lanadi;

- ish stajiga ko'ra tayinlanadigan pensiya — bu pensiya ma'lum yoshga yetganlik holatisiz belgilanadi. Ishchi belgilangan yillar davomida ishlagan bo'lishi, ya'ni zarur maxsus ish stajiga ega bo'lishi lozim;

- nogironlik bo'yicha pensiya sog'liq holati sababli mehnat faoliyatini erta yakunlaydigan shaxslar toifasiga to'lanadi;

- boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiya boquvchisi vafot etgan taqdirda uning oila a'zolariga to'lanadi.

Ikkinchi va uchinchi darajalarning (qo'shimcha pensiya tizimining) joriy etishning asosiy sababi - davlat pensiya sug'urtasi tizimi (birinchi bosqich) orqali to'lanadigan pensiya to'lovlarida ish haqi o'rnini bosish koeffitsiyentining kamayish tendensiyasidir (Shermuhamedova, 2016).

Italiya pensiya tizimining ikkinchi bosqichi faqat nodavlat pensiya jamg'armalari hisobidan moliyalashtiriladigan qo'shimcha pensiya shaklida namoyon bo'ladi. Qo'shimcha pensiya - bu shunday moliyaviy vositaki, u fuqaro nafaqaga chiqqan paytda majburiy va qo'shimcha pensiya to'lovlarini birlashtirish imkonini beradi. Qo'shimcha pensiya majburiy pensiya tizimini o'rnini bosmaydi

Har bir ishchi uchun individual hisob ochiladi, unga to'lovlar yo'naltiriladi va bu mablag'lar keyinchalik moliya bozorida moliyaviy vositalarga - aksiyalar, obligatsiyalar, qarz majburiyatlari hamda o'zaro fond ulushlariga - investitsiya qilinadi. Ushbu moliyaviy vositalarning daromadliligi moliya bozoridagi tendensiyalar hamda boshqaruv usulining tanlanishiga bog'liq bo'ladi.

Islohotlardan so'ng nodavlat pensiya jamg'armalarini uch toifaga ajratish mumkin:

- shartnomaviy pensiya jamg'armalari;
- ochiq pensiya jamg'armalari;
- sug'urta polislari ifodalaydigan individual pensiya ta'minoti rejalari.

Shartnomaviy (yopiq) pensiya jamg'armalari alohida toifadagi ishchilar manfaatlarini ko'zlab tashkil etiladigan jamg'armalar, masalan:

- bir xil shartnoma toifasiga, bitta korxona yoki korxonalar guruhiga, shuningdek, bir hududga mansub bo'lgan xususiy sektor ishchilari;
- ishchning oilaviy a'zolari, agar bu jamg'arma nizomida ko'zda tutilgan bo'lsa;
- ma'lum sohalarga mansub davlat xizmatchilari;
- kooperativ a'zolari;
- ma'lum faoliyat bilan shug'ullanuvchi xususiy tadbirkorlar va erkin kasb egalari (freelancerlar).

Ochiq pensiya jamg'armalari qo'shimcha pensiya manbai bo'lib, unda ish bilan bandlik holatidan qat'iy nazar, qo'shimcha pensiya olishni istagan har bir shaxs ro'yxatdan o'tishi mumkin. Ochiq jamg'armalarning professional jamg'armalardan farqi shundaki, ular hisobga kiritilayotgan mablag'larni bevosita boshqarish imkoniyatini taqdim etadi. Ochiq pensiya jamg'armalarini tashkil etishi mumkin bo'lgan subyektlar quyidagilardir: banklar, aktivlarni boshqarish kompaniyalari, brokerlik va sug'urta kompaniyalari. Jamg'arma aktivlari kompaniya aktivlaridan mustaqil. Agar jamg'armani tashkil qilgan kompaniya bankrot bo'lsa, ochiq pensiya jamg'armasining aktivlari kreditorlar da'volarini qondirish uchun ishlatilishi mumkin emas. Ochiq pensiya jamg'armasiga ish bilan band bo'lmagan shaxslar ham a'zo bo'lishlari mumkin.

Jismoniy shaxslar uchun individual pensiya rejalari amalga oshiradigan ochiq pensiya jamg'armalari mavjud. Ushbu shaklning afzalligi shundaki, badallar to'lovini vaqtincha to'xtatib, keyinchalik yana davom ettirish imkoniyati mavjud.

Italiya pensiya tizimining uchinchi darjasi turli aktivlarni saqlash shakllaridan iborat bo'lib, ular quyidagi vositalar orqali amalga oshiriladi: hayot sug'urtasi polislari, aksiyadorlik investitsiya fondlari, pochta omonat sertifikatlar, obligatsiyalar.

Hozirgi vaqtda Italiya fuqarosi 66 yoshda to'liq huquqli pensioner maqomiga ega bo'lishi mumkin. Bu yosh erkaklar va ayollar uchun bir xil belgilangan. Bir necha yil avval pensiya yoshi chegarasi biroz pastroq edi. Pensiya yoshining oshirilishi aholining tez sur'atlarda qarib borish jarayoni bilan izohlanadi.

Ko'plab mamlakatlarda bo'lgani kabi, AQShning pensiya tizimi ham ikki asosiy tarkibiy qismdan iborat: majburiy davlat sug'urtasi va ixtiyoriy xususiy sug'urta tizimi. Davlat sug'urtasi tizimi doirasida pensiya jamg'armasiga ijtimoiy badallar ishchi tomonidan ish haqining 7,65 foizi miqdorida to'lanadi, xuddi shu miqdordagi badalni ish beruvchi ham to'laydi. Shunday qilib, umumiy badal miqdori 15,3 foizni tashkil etadi. Yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar 15,3 foiz miqdorida o'zlari uchun ham xodim, ham ish beruvchi sifatida badal to'laydilar. Mehnat bilan bog'liq bo'lmagan daromadlar, ya'ni bank omonatlari va obligatsiyalar bo'yicha foizlar, dividendlar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalardan olingan daromadlar pensiya solig'iga tortilmaydi.

Shunga qaramay, davlat pensiya tizimi amerikalik fuqaroga nafaqaga chiqqandan so'ng munosib turmush darajasini ta'minlab bera olmaydi, chunki o'rtacha ish haqining pensiya bilan qoplash koeffitsienti atigi 30 foizni tashkil etadi. Holbuki, odatdagi turmush tarzini saqlab qolish uchun bu ko'rsatkich 70–80 foiz atrofida bo'lishi yetarli daraja hisoblanadi. Ishlayotgan shaxs va nafaqadagi fuqaroning daromadlari o'rtasidagi tafovutni kamaytirish maqsadida AQShda bir nechta ixtiyoriy pensiya tizimlari faoliyat yuritadi. Ushbu tizimlar kelajakdagi pensiya uchun mablag' jamg'arish imkonini beradi (Vasilenok, 2015).

AQShdagi pensiya tizimi juda egiluvchan bo'lib, masalan, xodim 62 yoshda, ya'ni belgilangan pensiya yoshiga yetmasdan ham pensiyaga chiqishi va to'liq bo'lmagan pensiya


olishi mumkin. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Germaniyada o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 83,1 yilni, Italiyada 82,7 yilni, AQShda 79,3 yilni, Rossiyada esa 70,5 yilni tashkil etadi. Shunday qilib, o'rtacha hisobda nemis pensionerlari 16 yil, italyanlar 16 yil, amerikaliklar 12 yil, rossiyaliklar esa taxminan 10 yil davomida pensiya olishadi.

1-jadval

**Xorijiy mamlakatlar pensiya tizimlarining qiyosiy tavsifri**

| Mezonlari                      | Buyukbritaniya                                                                                                                                                        | Rossiya                                                                      | AQSH                                                                                                                                             | Ukraina                                                                           |
|--------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| Pensiya yoshi, yil             | Ayollar -60<br>Erkaklar-65                                                                                                                                            | Ayollar -55<br>Erkaklar-60                                                   | Ayollar -65<br>Erkaklar-65                                                                                                                       | Ayollar -60<br>Erkaklar-62                                                        |
| Pensiya tizimi darajalari soni | 3 darajali                                                                                                                                                            | 3 darajali                                                                   | 2 darajali                                                                                                                                       | 3 darajali                                                                        |
| Eng kam oylik pensiya miqdori  | 30 yillik mehnat staj bilan haftasiga £115,95 miqdorda                                                                                                                | O'rtacha pensiya miqdori 6500 rubl bo'lib, u mintaqaga qarab o'zgarib turadi | 300 \$ boshlab, o'rtacha pensiya miqdori 1100–1200 \$ tashkil etadi                                                                              | 949 grivna                                                                        |
| Eng kam sug'urta staji         | 10–11 yil, pensiya yoshiga qarab belgilanadi                                                                                                                          | Kamida 15 yil                                                                | Kamida 10 yil                                                                                                                                    | Kamida 15 yil                                                                     |
| Sug'urta badallari             | Sinf va belgilangan minimal to'lov chegarasiga qarab belgilanadi<br>O'rtacha hisobda, ish beruvchi belgilangan past va yuqori chegara miqdori orasidan 12,8% to'laydi | Ishchining yillik daromadining 22%i, 711 ming rubl chegarasigacha            | 15,3% — ishchilar va ish beruvchilar tomonidan teng taqsimlanib, har biri 7,65% stavkada to'lanadi, ammo faqat yillik \$65,4 ming chegarasigacha | Eng kam ESB miqdori: ish beruvchilar uchun — 34,7%, ishchi-xodimlar uchun — 3,6%. |

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda pensiya tizimi odatda uchta darajada ifodalanadi: birdamlik (davlat), jamg'ariladigan (davlat) va nodavlat pensiya ta'minoti. Ayollar uchun o'rtacha pensiya yoshi 60 yosh, erkaklar uchun esa 63 yosh. Biroq pensiya yoshini oshirishda har bir mamlakatdagi o'rtacha umr ko'rish davomiyligini hisobga olish kerak. Shunday qilib, Buyuk Britaniyada o'rtacha umr davomiyligi erkaklar uchun 76,2 yil, ayollar uchun 81,3 yilni tashkil etsa, AQShda erkaklar uchun 75,2 yil, ayollar uchun 81 yilni tashkil qiladi. Rossiyada esa erkaklar umr davomiyligi 10 yildan ortiq past bo'lib, 64 yilni, ayollar esa 75,6 yil umr ko'radi. Ukrainada vaziyat Rossiyaga o'xshash bo'lib, o'rtacha umr davomiyligi erkaklar uchun 62,2 yil, ayollar uchun 74 yilni tashkil etadi. Shuning uchun Ukraina erkaklar uchun pensiya yoshini 62 yoshga ko'tarish bilan, erkak pensiyanerlar soni kamayib qolishi xavfi mavjud, ayollar esa aksincha, pensiyada deyarli 14 yil davomida bo'lishadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillar davomida iqtisodiy faol aholi hissasiga ijtimoiy badallar bo'yicha yuklama tobora oshmoqda. Demografik bashoratlarga ko'ra, 2019-2025 yillarda pensiya yoshidagi aholining ulushi Keskin oshishi kutilmoqda (yillik o'rtacha o'sish – 16 ming nafar fuqaro) va bu holat tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Yillar kesimida pensiya yoshidagi aholining o'sish ko'rsatkichi**

Bu esa, o'z navbatida, Pensiya jamg'armasi xarajatlarning mutanosib ravishda oshishiga olib keladi. Mamlakat aholisining qarib borishi ko'rsatkichi shuni ko'rsatadiki, pensiya yoshidagi aholi soni o'sish tendentsiyasiga ega (2010-yildagi aholining umumiy soniga nisbatan 5,9 foizdan 2018-yilga kelib 7,4 foizgacha). Statistik tashkilotlarning ma'lumotlariga ko'ra, 2019-yildan boshlab pensiya yoshidagi aholi soni 9 foizdan ortadi va 2025-yilga borib 11 foizga etdi (2011-yildagi 6,2 foizga nisbatan).

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni tashkil etsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 57,5 yoshni tashkil etadi (ayollar uchun 55 yosh, erkaklar uchun 60 yosh). Markaziy Osiyo davlatlarida, masalan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yosh. Qozog'istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga etkazish, bunda har yili pensiya yoshni 6 oyga bosqichma-bosqich oshirish yo'li bilan amalga oshirib boriladi. Turkmanistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi.

Buning uchun quyidagi yo'nalishlarda choralar ishlab chiqish lozim:

a) uch tomonlama hamkorlik (tripartizm) tamoyilini amalga oshirish hamda pensiya qonunchiligini rivojlantirish bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ijtimoiy hamkorlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmini optimallashtirish;

b) yagona tamoyillar asosida majburiy pensiya sug'urtasi va boshqa majburiy ijtimoiy sug'urta turlarini, umumiy axborot bazasidan foydalangan holda samarali faoliyatini ta'minlash;

c) majburiy pensiya sug'urtasini boshqa majburiy ijtimoiy sug'urta turlari bilan uyg'unlashtirish;

d) yagona aktuariy baholash tizimini shakllantirish, shu jumladan aktuariy faoliyatini standartlashtirish;

Ijtimoiy kafolatlarining manzilli ta'minlanishini takomillashtirish va yashirin mehnat bozorini qonuniylashtirish maqsadida fuqarolarni majburiy pensiya sug'urtasi sohasida shaxsiy hisobini yuritish tizimini takomillashtirish, shuningdek, fuqarolarning mehnat va ijtimoiy hujjatlarini elektron shaklda yuritish zarur. Ma'lum ijtimoiy qatlamlar uchun davlat pensiyalari asosiy yashash manbai hisoblanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning yana bir guruhi uchun ular oila byudjetining asosiy emas, balki muhim daromad manbai hisoblanadi. Shuning uchun, mamlakatimiz hududida pensiya ta'minoti har doim barqaror bo'lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz hududidagi davlat pensiyalari huquqiy normalar bilan tartibga solingan bo'lib, ular doimiy ravishda yangilanib va takomillashtirib borilmoqda. Pensiya tizimi barqaror va samarali faoliyat yuritmoqda. Biroq, pensiya faoliyatini yanada

samarali qilish maqsadida normativ bazaga ba'zi o'zgartirishlar kiritish zarur, bu esa sezilarli yaxshilanishlarga olib keladi.

### Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan pensiya islohotlari ushbu sohadagi jahon tendensiyalari kontekstida kechmoqda, ya'ni chet el, xususan, AQSh, Germaniya va Italiya tajribasi hisobga olingan holda olib borilmoqda. Mazkur guruh mamlakatlaridagi pensiya islohotlarining muhim elementi - pensiyaning jamg'ariladigan qismining ahamiyatining oshishi hisoblanadi. Pensiyaning jamg'ariladigan qismi pensiya tizimini demografik tendensiyalardan nisbatan mustaqil qilish va pensiya to'lovlarining umumiy darajasini oshirish imkonini beruvchi vosita sifatida ko'riladi. Germaniya, Italiya va Rossiyadagi pensiya islohotlarining asosiy elementlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yangi pensiya tizimi Yevropa tizimlariga to'liq mos kelmasa-da, ba'zi jihatlarida ularga yaqinlashadi. Yangi pensiya modelini loyihalashda O'zbekiston, shubhasiz, yangi xorijiy pensiya sxemalariga e'tibor qaratishi va shu bilan birga pensiya badallarini to'lovchilarning daromad darajasi, ichki moliya bozorining rivojlanish darajasi va inflyatsiya darajasi kabi omillar bilan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarini unutmazligi kerak. Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, pensiya tizimining samaradorligi uni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, jamg'arib boriladigan pensiya ulushini oshirish, shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston pensiya tizimini tahlil qilish natijalari ushbu sohada islohotlarni davom ettirish zaruriyatini ko'rsatadi. Ayniqsa, demografik yuklamaning oshib borishi, norasmiy bandlik ulushi va byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarining ortishi mavjud tizim barqarorligiga ma'lum xavf tug'diradi.

Umuman olganda, xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirgan holda, majburiy va ixtiyoriy pensiya sug'urtasining uyg'unlashuvi, jamg'arib boriladigan pensiya ulushining oshirilishi hamda institutsional islohotlarning davom ettirilishi O'zbekiston pensiya tizimining barqarorligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

- Albyeva, T.S. (2017) *'Osobennosti pensionnogo obespecheniya zarubezhnykh strane, Simvol nauki*, (4), pp. 21–24.
- Barr, N. and Diamond, P. (2008) *Reforming pensions: Principles and policy choices*. Oxford: Oxford University Press.
- Bloom, D. and Canning, D. (2008) *Global demographic change: Dimensions and economic significance*. NBER Working Paper No. 10817.
- Dmitryuk, I.N. (2015) *'Pensionnaya sistema Germanii'*, *Ekonomika i sotsium*, (2), p. 94.
- Holzmann, R. and Hinz, R. (2005) *Old-age income support in the 21st century: An international perspective on pension systems and reform*. Washington, DC: World Bank.
- Lee, R. and Mason, A. (2011) *Population aging and the generational economy: A global perspective*. Cheltenham: Edward Elgar.
- OECD (2019) *Pensions at a Glance 2019: OECD and G20 Indicators*. Paris: OECD Publishing.
- Pension Fund of the Republic of Uzbekistan (n.d.) *Official website of the off-budget Pension Fund under the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan*. Available at: <http://www.pfru.uz>
- Shermukhamedova, Sh.A. (2016) *'Pensionnye sistemy zarubezhnykh stran'*, *Innovatsionnye tekhnologii v nauke i obrazovanii*, (3), pp. 309–311.
- Siraeva, R.R. (2015) *'Pensionnaya sistema Germanii'*, *Ekonomika i sotsium*, (2), p. 142.
- Vasilenok, V.L. and Mel'nikov, K.S. (2015) *'Zarubezhnyy opyt pensionnogo obespecheniya i reformirovanie pensionnoy sistemy RF'*, *Ekonomika i ekologicheskiy menedzhment*, (2), pp. 117–119.